

OMMAVIY OFERTA

«Ucell bayramini ulashing» reklama aksiyasini o‘tkazish qoidolari.

Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi Ucell rasmiy sahifasi obunachilari o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlov ko‘rinishidagi Aksiya qoidolari.

«Ucell bayramini ulashing» reklama aksiyasini o‘tkazish bo‘yicha ommaviy oferta.

Mazkur hujjat Ucell savdo belgisi ostida xizmatlar ko‘rsatuvchi «COSCOM» MChJning ommaviy ofertasi hisoblanadi hamda «Ucell bayramini ulashing» reklama aksiyasida (keyingi o‘rinlarda — Aksiya) ishtirok etish shartlarini belgilaydi.

Aksiyada ishtirok etish fakti, ya’ni Ishtirokchilar tomonidan Ofertaning 4-bo‘limida ko‘rsatilgan shartlarning bajarilishi, Ishtirokchining ushbu Oferta shartlariga to‘liq va so‘zsiz roziligini anglatadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Aksiya reklama maqsadlarida o‘tkaziladi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi.
- 1.2. Aksiya Ucell kompaniyasining 30 yilligi munosabati bilan o‘tkaziladi.
- 1.3. Aksiya tashkilotchisi — «COSCOM» MChJ. Yuridik manzili: 100031, Toshkent shahri, V. Vohidov ko‘chasi, 118-uy.
- 1.4. Aksiya faqat Instagram ijtimoiy tarmog‘ida, Ucell’ning rasmiy sahifasida o‘tkaziladi: https://www.instagram.com/ucell_uz/
- 1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
- 1.6. Aksiyada ishtirok etish bepul.
- 1.7. Sovrinlar soni cheklangan.

2. AKSIYANING O‘TKAZILISH MUDDATI

- 2.1. Aksiya 2026 yil 2-martdan 2026 yil 2-iyungacha bo‘lgan muddatda o‘tkaziladi.
- 2.2. G‘oliblar bosqichma-bosqich aniqlanadi:

- 1-bosqich – 2026 yil 1-aprelgacha;

- 2-bosqich – 2026 yil 1-maygacha;
- 3-bosqich – 2026 yil 1-iyungacha;

3. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

3.1. Aksiyada quyidagi talablarga javob beradigan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi;
- Instagram ijtimoiy tarmog‘ida amaldagi akkauntga ega bo‘lishi;
- ushbu Ofertaning 4-bo‘limida ko‘rsatilgan ishtirok etish shartlarini bajargan bo‘lishi lozim.

3.2. «COSCOM» MChJ xodimlari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.

3.3. Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va norezidentlar Aksiyada ishtirok etishga qo‘yilmaydi.

4. ISHTIROK ETISH SHARTLARI

4.1. Instagram’da Ucell’ning rasmiy sahifasiga obuna bo‘lish.

4.2. Ucell’ning 30 yilligiga bag‘ishlangan tanlov postiga “like” qo‘yish.

4.3. Ucell’ning 30 yilligiga bag‘ishlangan tanlov post ostida uch (3) do‘stini belgilab izoh qoldirish. Ushbu izoh g‘olibni tasodifiy raqamlar generatori yordamida aniqlashda hisobga olinadi.

4.4. Har bir Ishtirokchi faqat bitta izoh qoldirishi mumkin. Shu Ishtirokchidan kelgan boshqa izohlar hisobga olinmaydi.

4.5. Bitta izohda uch (3) dan ortiq Instagram foydalanuvchisini belgilash mumkin emas. G‘olib aniqlanayotgan paytda g‘olibning va izohda belgilangan foydalanuvchilarning akkauntlari umumiy foydalanish uchun ochiq bo‘lishi, kirish cheklovi, bloklanish yoki o‘chirilish belgilariga ega bo‘lmashligi hamda ushbu Ofertaning talablariga mos bo‘lishi shart.

4.6. Tashkilotchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra va sabablarini tushuntirmasdan, ushbu Oferta shartlari buzilgan, huquqdan suiiste’mol qilish, insofsiz xatti-harakatlar yoki ishtirokning halolligiga shubha tug‘diruvchi boshqa holatlar aniqlangan taqdirda, istalgan Ishtirokchining Aksiyadagi ishtirokini rad etish yoki bekor qilish huquqiga ega.

Spam, reklama, haqorat yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzuvchi izohlar Aksiyada ishtirok etish uchun hisobga olinmaydi.

5. QUR'A TASHLASH O'YININI O'TKAZISH TARTIBI

- 5.1. Aksiya g'oliblari tasodifiy ravishda, tasodifiy raqamlar generatori yordamida aniqlanadi.
- 5.2. G'oliblarni aniqlash jarayoni ekran yozuvi orqali qayd etiladi va keyinchalik Instagram'dagi Ucell rasmiy sahifasida e'lon qilinadi.
- 5.3. Tashkilotchi tanlov jarayonini video va/yoki skrinshot orqali qayd etish huquqiga ega, jumladan:
 - Ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirish va yuklash;
 - G'oliblarni tasodifiy tanlash jarayoni;
 - Tanlov natijalarini ko'rsatish.
- 5.4. Qayd etilgan materiallar (video va/yoki skrinshotlar) Tashkilotchi tomonidan saqlanishi va tanlovning oshkoraligini tasdiqlash hamda kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilish maqsadida ishlatilishi mumkin.
- 5.5. Natijalar Ucell'ning rasmiy manbalarida e'lon qilinishi g'oliblar aniqlanganining qonuniy tasdig'i hisoblanadi.
- 5.6. G'oliblar soni sovrinlar soniga mos keladi.
- 5.7. Har bir Ishtirokchi (jismoniy shaxs) Aksiya davomida, foydalanilayotgan Instagram akkauntlari sonidan qat'i nazar, faqat bir marta g'olib deb topilishi mumkin.
- 5.8. Tanlovlar jadvali va har bir bosqichdagi sovrinlar soni o'zgartirilishi mumkin.
- 5.9. Tashkilotchi tanlov o'tkazilishiga to'sqinlik qiladigan sharoitlar yuzaga kelganda (shu jumladan bayram va dam olish kunlari, texnik yoki tashkiliy sabablari, kuchli majburiyat holatlari) tanlov sanalarini o'zgartirish huquqiga ega.
- 5.10. Har bir bosqich alohida o'tkaziladi. Tegishli bosqichda faqat shu bosqich boshlanish sanasidan boshlab va tanlov o'tkaziladigan kundan bir kun oldin soat 23:59 gacha (O'zbekiston Respublikasi vaqti bilan) joylashtirilgan izohlar ishtirok etadi. Belgilangan muddatdan tashqarida qoldirilgan izohlar tegishli bosqichda hisobga olinmaydi.
- 5.11. Faqat tanlov ishtirokchilari ro'yxati shakllantirilayotgan paytda ochiq va ko'rinadigan izohlar hisobga olinadi.
- 5.12. G'olib akkaunt havolasi va tanlov o'tkazilgan paytdagi akkaunt identifikatori asosida aniqlanadi.
- 5.13. Tashkilotchi Instagram tomonidan postlarning o'chirilishi yoki ularga kirish cheklanishi uchun javobgar emas.

6. SOVRINLAR

- 6.1. Sovrinlar jamg'armasi quyidagilardan iborat:

№	Nomi	1-chi qur'a - 01.04.2026 y.	2-chi qur'a - 01.05.2026 y.	3-chi qur'a - 02.06.2026 y.	Umumiy sovrinlar
1	iPhone 16 PRO	1	1	1	3
2	iPhone 16 PRO MAX	-	-	1	1
3	Samsung Galaxy Z Fold 6 256GB	1	-	-	1
4	Samsung Galaxy S25 Ultra 12+256GB	-	1	-	1
5	ZTE G5B routeri	1	1	1	3

6.2. Aksiya Tashkilotchi tomonidan shakllantiriladi.

6.3. Sovrinlar pul mablag'iga almashtirilmaydi.

6.4. Agar ma'lum sovrin mavjud bo'lmasa, Tashkilotchi uni qiymati o'xshash yoki yuqori bo'lgan boshqa sovrin bilan almashtirish huquqiga ega.

6.5. Reklama materiallarida ko'rsatilgan sovrinlar tasvirlari haqiqiy ko'rinish, to'plam va xususiyatlardan farq qilishi mumkin.

7. SOVRINLARNI OLIISH

7.1. G'olib shaxsan Tashkilotchi bilan Direct orqali bog'lanishi kerak. Agar G'olib Tashkilotchi bilan bog'lanmasa, Tashkilotchi g'olibga Direct orqali xabar yuborib o'z vaqtida xabardor qilish huquqiga ega. Tashkilotchi tomonidan G'olibga yuboriladigan xabarlar soni – 1 ta.

7.2. Agar g'olib 18 yoshga yetmagan shaxs bo'lsa, sovrin uning qonuniy vakili – ota-ona yoki vasiy tomonidan olinadi. Qonuniy vakil o'z vakolatini tasdiqlashi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etishi va sovrinni voyaga yetmagan shaxs nomidan qabul qilish dalolatnomasini imzolashi shart.

7.3. G'olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi va sovrinni olish uchun Tashkilotchining ofisiga shaxsan kelishi shart.

7.4. Sovrin olish uchun G'olib pasport yoki ID-karta aslini (JSHSHIR ko'rsatilgan) taqdim etadi va sovrinni qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

7.5. Sovrinlar tegishli tanlov o'tkazilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida topshiriladi, biroq har qanday holatda ham 2026 yil 2 iyuldan kechiktirmay (shu kunni ham qo'shgan holda) beriladi. Ko'rsatilgan sanadan so'ng sovrinlar berilishi to'xtatiladi.

7.6. Agar sovrin qabul qilish dalolatnomasi imzolangan va sovrin haqiqatan topshirilgan bo'lsa, Sovrin qabul qilingan va topshirilgan deb hisoblanadi.

7.7. 30 taqvim kuni davomida olinmagan sovrinlar olinmagan deb hisoblanadi yoki Tashkilotchi ixtiyoriga ko'ra keyingi bosqichga ko'chirilishi mumkin.

7.8. G'olib Instagram akkauntiga egaligini Tashkilotchi talab qilgan tasdiqlovchi harakatlar (Direct orqali xabar yuborish va boshqa usullar) orqali tasdiqlashi shart.

7.9. Sovrinlar O'zbekiston Respublikasi hududida Tashkilotchining o'z savdo ofislarida yoki g'olibga qo'shimcha ravishda ma'lum qilinadigan Ucell ofisida topshiriladi.

7.10. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sovrin olish huquqiga ega emas.

Shartlarga mos kelmaydigan shaxs g'olib deb topilgan taqdirda, sovrin Tashkilotchining ixtiyorida qoladi.

8. BOSHQA QOIDALAR VA ISHTIROKCHINING ROZILIGI

8.1. Aksiya haqida ma'lumot www.ucell.uz saytida o'zbek va rus tillarida joylashtiriladi. Agar matnlarda tafovut vujudga kelsa, ustunlik o'zbek tiliga beriladi.

8.2. Aksiya ishtirok etish faktlari Ishtirokchining ushbu Oferta shartlariga roziligini anglatadi.

8.3. Tashkilotchi Ofertaga o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo'lib, yangilangan versiyani www.ucell.uz saytida e'lon qiladi.

8.4. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- Ishtirokchilarning Aksiya shartlari bilan tanishish imkoniyati bo'lmashligi;
- Hujjatlarning kechikib yetib kelishi Ishtirokchi aybi bilan bo'lsa;
- G'olibning sovrinni olishdan bosh tortishi;
- Uchinchi shaxslar yoki Ishtirokchi sababli texnik nosozliklar.

8.5. Agar firibgarlik yoki adolatsiz harakatlar aniqlansa, Tashkilotchi Ishtirokchining Aksiya ishtirokini bekor qilish huquqiga ega.

8.6. Tashkilotchi firibgarlikning oldini olish maqsadida qo'shimcha texnik cheklovlar joriy qilish huquqiga ega.

8.7. Tashkilotchi majburiyatni imkonsiz holatlar yuzaga kelganda (force majeure) zimmasiga olmaydi.

8.8. Ishtirokchi shaxsiy ma'lumotlarni, jumladan FISH, tug'ilgan sana, manzil, pasport ma'lumotlari va JSISHIRni qayta ishlash va uzatishga roziligini tasdiqlaydi.

8.9. Ishtirokchi quyidagilarga roziligini bildiradi:

8.9.1. G'oliblar Oferta belgilagan tartibda aniqlanishiga;

8.9.2. Uchinchi shaxslarning da'volarini mustaqil hal qilishga;

8.9.3. G'olib deb tanlangan taqdirda o'z haqidagi ma'lumotni www.ucell.uz saytida va boshqa manbalarda e'lon qilishga;

8.9.4. Aksiya ishtirok to'g'risida reklama sifatida intervyularda, jumladan radio, televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida ishtirok etishga, shuningdek, Tashkilotchi va/yoki u jalb qilgan uchinchi shaxslar tomonidan fotosurat va videotasvirga olishga rozilik. Bundan tashqari,

Ishtirokchi, yaratilgan materiallardan (foto va video) qo‘shimcha ruxsat yoki to‘lov olmasdan foydalanishga rozilik bildiradi, hatto agar materiallar reklama xususiyatiga ega bo‘lganda ham;

8.9.5. Sovrin olish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni mustaqil qoplashga;

8.9.6. Tashkilotchi bilan muhokamalarga kirishmaslik huquqiga, Oferta bilan belgilangan holatlar bundan mustasno;

8.9.7. Nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga, imkoni bo‘lmasa – O‘zbekiston Respublikasi sudlarida hal qilishga va da’vo tartibiga rioya qilishga rozilik bildiradi.

8.10. Tashkilotchi Instagram tomonidan qo‘yilgan cheklovlar yoki akkauntlarning bloklanishi uchun javobgar emas.

9. NATIJALARNI E’LON QILISH

9.1. Tanlov natijalari www.ucell.uz saytida va Kompaniyaning Instagram’dagi rasmiy sahifasida e’lon qilinadi.

9.2. G‘oliblar ro‘yxatida Instagram akkaunti nomi va olingan sovrin ko‘rsatiladi.

Aksiya Instagram tomonidan homiylik qilinmaydi, qo‘llab-quvvatlanmaydi va boshqarilmaydi. Instagram Aksiyani o‘tkazish uchun javobgar emas.